QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

IJTIMOIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i10.084

XX ASR BOSHLARIDA SHARQIY TURKISTONDA TA’LIM MODERNIZATSIYASI: YANGI USUL MAKTABLARI VA TURKIY JAMOALAR O‘RTASIDAGI MA’RIFIY ALOQALAR

Yuldashov Shukurjon Anvarjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
tayanch doktoranti
***ORCID**: 0009-0005-5591-471X*
***e-mail**: shukurjonyuldashev76@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada XX asr boshlarida Sharqiy Turkistonda ta’lim modernizatsiyasi, yangi usul maktablari va ularning ijtimoiy ta’siri o‘zbek, uyg‘ur va ingliz tillaridagi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. An’anaviy maktab, Sin hukumati maktablari va yangi usul maktablari taqqoslanadi. Shuningdek, Artush, G‘ulja, Qoshg‘ar va Guchung shaharlari misollarida uyg‘ur, o‘zbek va tatar jamoalarining ma’rifiy aloqalari ko‘rsatiladi. Manbalardagi qarama-qarshiliklar, jumladan, maktablarning ta’sis sanalaridagi farqlar ochib beriladi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil va manba tanqidi usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot yangi usul tashabbuslari mahalliy homiylar manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lganini va ayrim hollarda ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqarganini ko‘rsatadi. Modernizatsiya yagona, izchil jarayon bo‘lmagani, u Sin hukumati siyosati, mahalliy homiylar tashabbusi va tashqaridan kelgan g‘oyalarning kesishuvida kechgani xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, uyg‘urlar, o‘zbeklar, tatarlar, Artush, G‘ulja, Qoshg‘ar, Musabayevlar, homiylik, manba tanqidi.

Аннотация. В статье на основе научной литературы на узбекском, уйгурском и английском языках анализируются модернизация образования в Восточном Туркестане в начале XX века, школы нового метода и их социальное влияние. Сопоставляются традиционная школа, школы цинского правительства и школы нового метода. На примерах Артуша, Кульджи, Кашгара и Гучуна показаны просветительские связи уйгурских, узбекских и татарских общин. Выявляются противоречия в источниках, в частности расхождения в датах основания школ. В исследовании использованы историко-сравнительный анализ и источниковедческая критика. Исследование показывает, что инициативы нового метода зависели от интересов местных покровителей и в ряде случаев вызывали социальные конфликты. Делается вывод, что модернизация образования не была единым последовательным процессом:

она протекала на пересечении политики цинского правительства, инициатив местных покровителей и привнесённых извне идей.

Ключевые слова: джадидизм, уйгуры, узбеки, татары, Артуш, Кульджа, Кашгар, Мусабаевы, покровительство, источниковедческая критика.

Annotation: The article analyzes educational modernization, the New Method schools, and their social impact in Eastern Turkestan in the early twentieth century on the basis of scholarly literature in Uzbek, Uyghur, and English. It compares the traditional school, the Qing government schools, and the New Method schools, and, using the examples of Artush, Ghulja, Kashgar, and Guchung, shows the educational ties among Uyghur, Uzbek, and Tatar communities. Contradictions among the sources, including differences in the founding dates of schools, are identified. The study uses historical-comparative analysis and source criticism. It shows that New Method initiatives depended on the interests of local patrons and in some cases caused social conflicts. The article concludes that educational modernization was not a single, coherent process: it unfolded at the intersection of Qing government policy, the initiatives of local patrons, and ideas coming from outside.

Key words: Jadidism, Uyghurs, Uzbeks, Tatars, Artush, Ghulja, Kashgar, Musabayevs, patronage, source criticism.

KIRISH.XIX asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston (Xinjiang) murakkab siyosiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. 1864-yilgi qo‘zg‘olondan so‘ng imperiyadan ajralgan hudud 1877-yilda qayta bosib olindi va 1880-yillarda Sin viloyatiga aylantirildi [1, 53-b.]. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ta’lim sohasida uch yo‘nalish yonma-yon mavjud bo‘ldi. Bular an’anaviy maktab, Sin amaldorlari joriy etgan xitoycha maktablar va yangi usul maktablari [1, 86, 101-b.]. D. Brophyning fikricha, Sharqiy Turkiston jadid maktab g‘oyalari Rossiyadan tashqarida qo‘llanilgan yagona joy bo‘lgan [1, 12-b.]. Mintaqa aholisi ko‘p jamoali bo‘lib, manbalarda ular turlicha nomlangan.Sin ma’muriyati o‘troq musulmonlarni “salla kiygan musulmonlar” deb atagan, mahalliy aholining o‘zi esa “musulmon” so‘zini “yerlik” so‘zi bilan bir ma’noda foydalangan [1, 33–34-b.]. E. Schluessel “Turki” atamasini “uyg‘ur” nomi shakllanishidan oldingi turkiy musulmonlar uchun qo‘llaydi [2, 1-b.]. “Uyg‘ur” nomi esa G. Clausonga ko‘ra, VIII asrdan, ehtimol XIII asrgacha Mo‘g‘uliston va Xitoy Turkistoni tarixida muhim rol o‘ynagan turkiy qabila nomidir [3, 140-b.].

Maqolaning maqsadi – ilmiy adabiyotlarga tayanib, XX asr boshlarida Sharqiy Turkistonda ta’lim modernizatsiyasining shakllari, uning ijtimoiy ta’siri va turkiy jamoalar o‘rtasidagi ma’rifiy aloqalarni aniqlashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Tadqiqot asosini D. Brophyning monografiyasi [1], Nushiravon Yovushef sayohatlariga bag‘ishlangan maqolasi [4], E. Schluessel tarjima qilgan Yorkend yilnomasi [2], shuningdek A. Axunov [5], T. Xudoyqulov [6], N. Samadova [7] tadqiqotlari, Abdulla Talipning uyg‘ur maorifi tarixiga oid ocherki [8] va T. Ershidinning Musabayevlar haqidagi kitobi [9] tashkil etdi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, manbalarni o‘zaro solishtirish va manba tanqidi usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

An’anaviy maktabning o‘quv dasturi Qur’on o‘qish, aqida savol-javoblari va sufiy she’riyatdan iborat bo‘lgan. 1880-yillarda unga xitoycha maktablar (xuetang) qo‘shilgan [1, 86-b.]. Schluessel Sin davrida maktab qurilishining ikki to‘lqinini ajratgan. 1870-yillarda oltmishta maktab ochilgan, 1907–1911-yillarda esa Du Tong boshchiligida olti yuzdan ortiq muassasa tashkil etilgan. Ikkinchi dastur assimilyatsion ta’limdan ongli ravishda qochgan va turkiy tilda o‘qitishni belgilagan [2, 31–32-b.]. Abdulla Talip esa Sin amaldorlari ochgan maktablarni asosan o‘zlariga tarjimon tayyorlashga qaratilgan deb baholaydi [8, 39–40-b.]. Yorkendlik G‘ulom Muhammad Xon 1927-yilda tugatgan yilnomasida xitoycha maktab ochish niyatini bolalarni xitoylashtirishga qaratilgan zulm deb tasvirlagan [2, 31-b.]. Schluessel yilnomani voqealar manbasi sifatida emas, inqiroz davridagi dunyoqarash ifodasi sifatida o‘qish kerakligini ta’kidlaydi [2, 2-b.]; shu sababli bu ma’lumot, birinchi navbatda, ta’lim siyosatining qanday idrok etilganini ko‘rsatadi.

1881-yildan keyin Rossiya konsulliklari Tarbag‘atoy va G‘uljadan Qoshg‘ar va Urumchigacha kengaydi [1, 74-b.]. Rus fuqarosi hisoblangan musulmonlar uchun esa o‘z-o‘zini boshqarish va konsullik huquqlari birlashtirilgan oqsoqollar tarmog‘i vujudga keldi [1, 76-b.]. Qoshg‘arlik mavsumiy mehnat muhojirlari soni 1905-yilda 13 000, 1908-yilda 28 000 kishiga yetgan [1, 84-b.]. A. Axunov Qoshg‘ar atrofida hunarmandchilikda asosan Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon va Toshkentdan borgan “andijonliklar” asosiy o‘rin tutganini rus konsuli hisobotiga tayanib yozadi, biroq atamaning etnik mazmunini izohlamaydi [5, 18-b.]. Brophyning xulosasiga ko‘ra, Sin siyosiy birlashuvga erishgan bo‘lsa-da, Sharqiy Turkistonning musulmon jamoasi ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan G‘arbga yuzlanishda davom etgan [1, 85-b.]. Usmonli davlati ham obro‘li markaz bo‘lgan: har yili o‘nlab, yuzlab hojilar Sin hududidan yo‘lga chiqqan, ko‘pchiligi Istanbul orqali o‘tgan [1, 87-b.]. Bu omillar yangi usul g‘oyalari Sharqiy Turkistonga nega tatar o‘qituvchilari va Istanbul orqali kirib kelganini tushuntirishga yordam beradi [1, 12, 95–96-b.].

Abdulla Talip yangi maktab maorifi “usuli jadid” deb atalganini, uning uyg‘ur targ‘ibotchilari qatoriga Artush va Ilida Husayn va Bahovuddin Musaboyevlar, Abdulqodir Domla Qoshg‘ariy, Turfonda Maxsud Muhiti, Kuchada Hamid Hojini kiritadi [8, 41-b.]. Uning yozishicha, birinchi yangi maktab Artush tumanidagi Iksoqda Musaboyev aka-ukalarning mablag‘i bilan qurilib, 1885-yil kuzida rasmiy o‘qishni boshlagan. Mazkur maktabda sinf-dars tizimi, doska va parta, boshqaruv va ota-onalar hay’ati, 105 o‘quvchi (25 nafari qiz), hisob, til, adabiyot, geografiya, jismoniy tarbiya darslari va imtihon tizimi bo‘lgan [8, 43–45-b.]. Brophy esa Musaboyevlarning yangi usuldagi tajribalarini 1898-yildan, maktabning ochiq jadidchi muassasaga aylanishini 1900-yil boshidan boshlaydi [1, 95-b.].

O‘qituvchi tayyorlash masalasida Talip birinchi mudir Karim oxun Qozon universitetida ikki yil o‘qiganini, 1890–1896-yillarda Turkiyadan Abubakr afandi taklif qilinganini va 1902-yilda sakkiz nafar yosh o‘quvchi Turkiyaga yuborilganini qayd etadi [8, 43–45-b.]. Brophy Muhammad Ma’sumning 1902-yilda Bog‘chasaroyda Ismoil Gasprinskiy bilan uchrashgani, 1904-yildan maktabga rahbarlik qilgani va 1913-yilgacha Sharqiy Turkistondan 15 talaba Istanbulda o‘qiganini yozadi [1, 95–96-b.]. Talip Musaboyevlarning

vasiyatiga ko‘ra boylik va ushr-zakotning bir qismi maktab va madrasaga sarflanganini keltiradi [8, 42-b.]; T. Ershidin ham Musaboyevlarning masjid va maktablarga yordamini yozadi [9, 13-b.].

Semirechye (Yettisuv)dagi taranchilar[1] orasida jadid tashabbuslari mahalliy homiy Vali Boy bilan to‘qnashdi. 1906-yil yanvarida Zarkentda Islom jamiyati tuzish va o‘qish zali ochish niyati e’lon qilingach, Vali Boy ikki hamkorning shahardan chiqarilishiga erishgan [1, 97-b.].

N. Samadova G‘uljada tatar, andijon va taranchi-uyg‘ur yangicha maktablarini qayd etadi [7, 19-b.]. O‘zbek jamoasi maktabi haqida T. Xudoyqulov G‘uljadagi “Namuna” maktabi 1906-yilda G‘ayniddinboy Fahriddinov boshchiligida jamoat mablag‘i bilan qurilganini, 1914-yilda unda diniy darslardan tashqari o‘zbek tili va hisob o‘qitila boshlaganini yozadi [6, 55-b.]. 1932-yilda “Yordam” shirkati ko‘magida ikki qavatli, 14 xonali bino qurilib, maktab 10 sinfga yetgan [6, 55–56-b.]. A. Axunov esa bu maktabni 1879-yilda Xomush xalfa ochgan diniy maktab deb ta’riflaydi. Talip Xemit Vekilining 1934-yildan “Namuna maktabi”ga rahbarlik qilganini yozadi [8, 46-b.]. Axunov Guchungda 1898–1901-yillarda buxorolik ulamo Zakchi qori xoji xususiy maktab ochganini, 1914–1916-yillarda esa “Irfoniya” maktabi tashkil etilganini keltiradi [5, 18-b.].

Qoshg‘arda ahvol G‘uljadagidan murakkab edi, chunki mahalliy ulamoning obro‘si madrasalar tarmog‘iga tayangan va tatar o‘qituvchilari uchun homiy topish qiyin bo‘lgan [1, 105-b.]. 1907-yilda Husayn Musaboyev xayriya jamiyati tuzish uchun yig‘inlar o‘tkaza boshladi, ammo 1908-yil boshida Shomiy Domla Idgoh masjidida maktab islohoti haqida nutq so‘zlaganda janjal chiqdi va tashabbus Oxunboyevlar bilan ziddiyat tufayli deyarli barham topdi [1, 105–107-b.]. 1912-yilda Abdulqodir Domla Qoshg‘ar Eski shahridagi birinchi yangi usul maktabini ochdi. Brophyning fikricha, Oxunboyevlar uning qo‘llanmalarini moliyalashtirgani sababli bu holatni “taraqqiyparvar jadid Musaboyevlar” va “reaksion Oxunboyevlar” qarama-qarshiligi sifatida tasvirlab bo‘lmaydi [1, 112-b.]. 1914-yilda tuzilgan Ta’lim tarqatish jamiyati har juma yig‘ilib, xurofiy urf-odatlarni tanqid qilgan [1, 128-b.]. Istanbuldan taklif qilingan Ahmad Kamol Musabayevlar maktabini “Ittifoq o‘qituvchilar kolleji” deb atadi [1, 128–129-b.], urush davrida esa Xitoy amaldorlari Usmonli tarafdori faoliyatiga ko‘z yumgan [4, 354-b.]. 1915-yil iyulida Rossiya elchisi maktabdan shikoyat qildi, sentabrda maktab yopildi [1, 131-b.].

Shen Shitsay[2] davrida rus, tatar, o‘zbek va boshqa guruhlarning madaniy tashkilotlariga bosim kuchaygani aytiladi [10, 21-b.]. Shunga qaramay, 1930-yillarda G‘uljadagi o‘zbek maktabida sovet ittifoqida o‘qigan ziyolilar dars bergan, 1934–1939-yillarda maktabga “tatar maorifchilarining vakillari” deb ta’riflangan Zaynab Jilqiboyeva va Pariha Aliakbariyeva mudirlik qilgan [6, 56-b.]. 1939–1940-yillarda jamoat mablag‘i bilan 800 o‘rinli klub qurilib, “Padarkush”, “Layli va Majnun” kabi spektakllar qo‘yilgan [6, 58-b.]. Talip Oqsuvda 1940–1943-yillarda dramalar va gazeta faoliyatini qayd etadi [8, 48–49-b.]. Brophyga ko‘ra, Qoshg‘arda 1935-yilda Uyg‘ur ma’rifat jamiyati Ta’lim tarqatish jamiyati negizida tuzilgan [1, 261-b.]. Sharqiy Turkiston Respublikasining ta’lim vaziri

[1] Taranchi – Sharqiy Turkiston hamda Yettisuv hududlarida yashagan turkiy xalq.
[2] Shen Shitsay – 1933-1944 –yillarda Sharqiy Turkistonni boshqargan xitoy gubernatori.

Abdulkarim Xon Maxdum esa o‘sha jamiyat asoschilaridan biri bo‘lgan [1, 244-b.]. 1945–1949-yillarda G‘ulja maktabida ta’lim o‘zbek tilida va yozuvida, Toshkentda chiqqan darsliklar bilan olib borilgan [6, 58–60-b.]; Sadriga ko‘ra, 1948-yilgi uyushma dasturi ona tilida matbuot va darsliklar hamda maktab va kollejlar sonini oshirishni nazarda tutgan [10, 54–55-b.]. Talip 1902-yilda Turkiyaga yuborilganlar qatorida Mas’ud Sabiriy ismini keltiradi [8, 43–45-b.], Sadri esa Masud Sabiri ismini 1940-yillardagi turkiy millatchilik targ‘ibotchilari orasida tilga oladi [10, 54-b.].

Tatar jurnalisti N. Yovushef Yorkendda 50 000 desyatina vaqf yeri borligini va uni ijaraga berish barcha bosqich ta’limni moliyalashtirishga yetishi mumkinligini yozgan [4, 351-b.]. 1915-yil aprelida u Qoshg‘ardan Ruhoniylar idorasi tuzish zarurligini yozgan, ammo qoshg‘arliklar bunga deyarli e’tibor bermagan. Brophy buni jadid yondashuvining paradoksi, ya’ni Rossiyada cheklangan avtonomiya vositasi bo‘lgan idoraning Qoshg‘arda Xitoy nazoratining kuchayishi sifatida qabul qilinishi mumkinligi bilan izohlaydi [4, 353-b.]. G‘ulom Muhammad Xon esa “ʿilm-i jadid” (yangi bilim) ni 1921–1922-yillar Buxorosi va bolsheviklarning kirib kelishi bilan bog‘lagan [2, 42–43-b.].

Tahlil quyidagi natijalarni berdi. Birinchidan, XX asr boshlarida Sharqiy Turkistonda uch ta’lim yo‘nalishi – an’anaviy maktab, Sin hukumati maktablari va yangi usul maktablari – parallel mavjud bo‘lgan [1, 86, 101-b.; 2, 31–32-b.]. Ikkinchidan, uyg‘ur va o‘zbek maktablari haqidagi ma’lumotlar o‘zaro mos kelmaydi. Xususan, Artushdagi birinchi yangi maktab uchun Talip 1885-yilni [8, 43–45-b.], Brophy 1898-yilni [1, 95-b.], G‘uljadagi o‘zbek maktabi uchun Axunov 1879-yilni [5, 18-b.], Xudoyqulov 1906-yilni [6, 55-b.] ko‘rsatadi. Uchinchidan, yangi usul tashabbuslari mahalliy homiylarga – Musaboyevlar, Vali Boy, Oxunboyevlar va “Yordam” shirkatiga – bog‘liq bo‘lgan [1, 97, 105–107-b.; 6, 55–56-b.]. To‘rtinchidan, maktablar tatar, Qozon, Istanbul va sovet ziyolilari bilan aloqada rivojlangan [1, 95–96-b.; 8, 43–45-b.; 6, 56-b.]. Beshinchidan, Brophy 1900-yillardagi tashabbuslarning hech biri kutilgan natijaga erishmaganini va Sharqiy Turkistondagi jadidchilikni aniq shakllangan ziyolilik harakati deb hisoblash fikrini shubha ostiga qo‘yadi [1, 112-b.]. Oltinchidan, Yovushef va G‘ulom misollari modernizatsiyaga nisbatan tashqi islohotchi va mahalliy qadimchi qarashlar o‘rtasida katta farq bo‘lganini ko‘rsatadi [4, 353-b.; 2, 23–24-b.].

XULOSA.XX asr boshlarida Sharqiy Turkistonda ta’lim modernizatsiyasi yagona, izchil jarayon bo‘lmagan. U Sin hukumatining maktab siyosati, mahalliy homiylarning tashabbuslari va tashqaridan kelgan g‘oyalarning kesishuvida kechgan [1, 12, 95–96-b.; 2, 31–32-b.]. Uyg‘ur, o‘zbek va tatar jamoalarining ma’rifiy aloqalari maktablar, o‘qituvchilar va jamoat mablag‘i orqali amalga oshgan [8, 43–45-b.; 6, 55–56-b.; 1, 95–96-b.]. Ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan modernizatsiya ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatgan. U homiylar va ulamo o‘rtasidagi ziddiyatlarni keskinlashtirgan [1, 97, 106–107-b.]. Shuningdek, Ta’lim tarqatish jamiyati kabi hamkorlik shakllarini ham yuzaga keltirgan [1, 128-b.].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Brophy D. Uyghur Nation: Reform and Revolution on the Russia-China Frontier. – Cambridge, MA; London: Harvard University Press, 2016.

2. Schluessel E. The World as Seen from Yarkand: Ghulām Muḥammad Khān’s 1920s Chronicle Mā Tīṭayniŋ wāqiʿasi (Central Eurasian Research Series No. 9). – Tokyo: NIHU Program Islamic Area Studies TIAS, The University of Tokyo, 2014.

3. Clauson G. The Name Uyğur // Journal of the Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland. – 1963. – No. 3/4. – P. 140–149.

4. Brophy D. A Tatar Turkist in Chinese Turkistan: Nushirvan Yavshef’s travels in Xinjiang, 1914–1917 // Studies in Travel Writing. – 2014. – Vol. 18, No. 4. – P. 345–356.

5. Axunov A.P. Farg‘ona oblasti va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tarixi (XIX asr 70-yillari – XX asr boshlari): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon: Andijon davlat universiteti, 2023. – 53 b.

6. Xudoyqulov T.B. Sharqiy Turkiston (XXR) o‘zbeklari tarixi va etnografiyasi. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2017.

7. Samadova N.M. Alixonto‘ra Sog‘uniyning O‘zbekiston va Sharqiy Turkiston ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi o‘rni: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2022.

8. Talip A. Uyg‘ur maorifi tarixi. – Uyghur Elkitab: www.uyebook.com. – 57 b. (uyg‘ur tilida)

9. Ershidin T. Qeyser karxanchi – Aka-uka Musaboyevlar. – Urumchi: Xinjiang xalq nashriyoti, 2003. (uyg‘ur tilida)

10. Sadri R. Soviet Expansion in Eastern Turkestan 1944–49: Honours thesis. – Adelaide: University of Adelaide, Department of History, 1980.